BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA MAROSIM AYTIMLARIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA AMALIY TAVSIYALAR

Nazarov Abduvosid Norboyevich
Termiz shahridagi Prezident maktabida pedagog-tarbiyachi
E-mail: abduvosidnazarov16@gmail.com

Qabul qilindi: 02.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 03.11.2025
Tasdiqlandi: 04.11.2025

Kalit so‘zlar:
ta’lim, o‘qituvchi, pedagog, metod, usul, musiqa, xalq qo‘shiqlari, milliy musiqa, kuy, ohang “Shashmaqom”, kasbiy (professional) musiqa, xalq aytimlari, xalq cholg‘ulari.
.
.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda marosim aytimlaridan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kirish. O‘zbek xalq musiqa ijodi o‘zining o‘ziga xos semantik qoidalariga ega bo‘lib, unda milliy musiqa san’atining eng yorqin namunalari aks etganligini ko‘rish mumkin. Shuning uchun ham musiqiy tarbiya milliy idrokning bitmas–tuganmas manbaidir, chunki u turlicha, bevosita inson yuragi va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir.

Auditoriyadan tashqari faoliyatda o‘rganish uchun tanlab olingan asarlar talabalarni xalq qo‘shiqchiligi ijodiyoti, musiqiy folklor yo‘nalishida mustaqil bilim olishga bo‘lgan talab va istaklariga mos kelishi aniqlandi. Bu pedagogik sharoit o‘z mazmunida talaba-yoshlarni musiqiy iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun izchil va maqsadli mashg‘ulotlar olib borishni nazarda tutdi. Shuningdek, bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchilarni auditoriya yoki auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarga imkon qadar keng va yakka tartibda, ansambl bo‘lib va ommaviy holda jalb qilinishi ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek xalq qo‘shiqlari oddiy kichik hajmdagi qo‘shiqlardan boshlab, asta-sekin murakkablashib boradi. Bunga

"Chamandagul", "Boychechak", "Lola", "Lola-lola, lolajon", "Lola sayli", "Ramazon", "Navro'z", "Sumalak", "Qo'sh haydash", "Choriychambar", "Yomg'ir yog'aloq", "Yallama yorim", "Non yopganda", "Oq terakmi ko'k terak", "Daryo toshqin" kabi bir qator qo'shiqlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Musiqa tinglash uchun asarlar ham oddiy kichik hajmdagi asarlardan boshlab, keyin asta-sekin murakkablashib boradi. Masalan, "Do'loncha", "Dutor bayoti", "Andijon polkasi", "Lola raqsi", "Qari navo", "Farg'onacha", "Sharob I", "Navro'zi ajam", "Munojot", "Chakira-chaki", "Qo'shchinor", "Sharob" shular jumlasidandir. Mazmunli quvnoq musiqalarni talabalar zavq bilan tinglab, musiqa va raqslarni berilib ijro etadilar, bu ularda o'zbek xalq kuy-qo'shiqlariga qiziqishni uyg'otadi, mehrini qozonadi, ijtimoiy pedagogikada axloqiy tarbiyani shakllantirish uchun zamin yaratadi. Shuning uchun ham musiqa bakalavriat talabalarini ma'naviy, axloqiy dunyosini har tomonlama shakllantirish uchun ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari tinglagan asarlarini idrok etishlari, o'z fikrlari, taassurotlarini bildirishlari uchun ular bilan suhbat (savol - javob) asar tahlili o'tkaziladi. So'ngra asar yana qayta tinglanadi. Iloji bo'lsa, bo'lajak musiqa o'qituvchisi oldin asarni o'zi milliy cholg'u sozida (doyra, rubob, dutor, nay, badaxshon rubob (afg'on rubob), g'ijjak, ba'zi mahalliy uslublarda torda yoki fortepianoda, so'ngra audio-video yoki aksi) tinglashni amalga oshirsa, musiqiy asarni yanada chuqurroq idrok etishlari, qadrlashlariga erishiladi. Ijro etishda ham bo'laklarga bo'lib, har bir taktda tovushlarning musiqiy haraktlanishi, eng asosiysi she'r matnini to'la ochib berishini ko'rsatib borish lozim. Tinglangan musiqiy asar turli musiqiy harakatlar yordamida bajarilsa yoki imitatsiya qilib dutor, rubob, doyra, g'ijjak va boshqa cholg'ularda ijro etishni ko'rsatilsa yoki ushbu kuy mazmuniga mos hikoya tuzib, rasmlar chizsalar asarning ta'siri xotiralarida uzoq vaqt saqlanadi. Bu esa musiqadan zavq va madaniy ozuqa olishlariga xizmat qiladi. O'rganilayotgan har bir qo'shiq yoki kuy asarlarini puxta o'ylab chiqib, talabalarga yetkazishda ularning motivatsion kayfiyat muhitini yaratish lozim. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'zlari qo'shiq kuylash, musiqani idrok etish, musiqaga moyillikni tarkib topishi amaliy va ta'sirchan vositasidir. Talabalar har bir musiqani diqqat bilan kuylash va tinglash ularda musiqiy tovushlar vositasida, obrazlarni yorqin tasavvur etish va musiqaga to'g'ri baho berishga o'rganadi.

Musiqa ta'limi yo'nalishi o'quv rejasida "O'zbek xalq musiqa ijodi" fani dars mashg'ulotlarida ijro etiladigan asarlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmog'i kerak. Talabalarning yoshiga mos tinglanadigan yoki kuylanadigan asar, ularning

ichki dunyosiga yaqin bo‘lishi, axloqiy odobiga ta’sir etishi kerak. Quvnoq va qayg‘uli musiqali ham, tantanavor ko‘tarinki ruh hamda hajviy musiqalarni ham diqqat-e’tibor bilan tinglashlari lozim. Har o‘quv yilida tinglanadigan va kuylanadigan musiqiy asarlar, shakl va mazmun jihatdan murakkablashib boradi. Hozirgi musiqa madaniyatini xilma–xil shakllari va axborot vositalari, tarqatma materiallar va noan’aviy uslubdagi darslar, ko‘rgazmali qurollar, audio-video, internet tarmoq vositalari va boshqa texnik vositalar bilan qurollangan bo‘lishi lozim.

Talabalar xonandalik janrlari uchun xususiyatlari bo‘yicha o‘z bilim, ko‘nikma, mahorat va malakaviy kompetentsiyalarini egallab olganliklari sababli ularga, avvalo, musiqa san’atining asosiy xususiyatlari, ichki va tashqi qonuniyatlari, ijrochilik uslublari, shuningdek, eng oddiy va ommaviy xususiyatlari haqida tushuncha berib, xalq musiqasi bilan bastakorlar tomonidan yaratilgan kasbiy (professional) musiqaning farqini, xalq musiqa janri badiiy folklor asarlari singari uzoq taraqqiyot tarixiga ega ekanini, sodda ravon, yorqin ohangda, mungli va xushchaqchaq dilrabo usullarda jaranglashini tushunadi. Shular bilan bir qatorda talabalar bilan atoqli xalq hofizlari bilan uchrashuv, badiiy va ijodiy kechalar o‘tkazish o‘zbek xalq musiqa ijodi namunalarini o‘zlashtirishda zamin yaratadi. Demak, musiqa darslarini turli metod va pedagogik texnologiyalar asosida idrokli, muhokamali, kuchli hissiy-irodaviy asosda olib borish kerak. Aynan shu jihatlar ularni o‘zbek xalq qo‘shiqlari bilan batafsil tanishtirish imkonini yaratadi. Ya’ni har bir mavzu va uni qamrab olgan musiqiy asarlarning bari o‘zbek xalq musiqa ijodiga tegishli, ya’ni xalq aytim va cholg‘ulari, bayram va marosim qo‘shiqlari, mavsumiy qo‘shiqlardan tarkib topgan. Masalan, xalq qo‘shiqlaridan biri hisoblangan “Yomg‘ir – yog‘aloq” qo‘shig‘ini o‘rganish. Qo‘shiq haqida qisqacha ma’lumotni o‘zlashtirish, amaliy metod orqali ko‘rsatiladi, ya’ni musiqasi eshittirilib, talabalar tomonidan ijro etiladi.

Xonandalikda asarni ansambl bo‘lib kuylashda shubhasiz quyidagi metod va usullardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Misol tariqasida “Zanjir” metodidan foydalangan holda talabalarning uchta guruhga ajratib ijro etish. Bunda, qo‘shiq boshlanishini 1-guruh, naqoratini 2-guruh, keyingi bandini 3-guruh va so‘nggi naqoratini barcha guruh ijro etish tarzida ketma-ketlikda, zanjir ko‘rinishida amalga oshirilib, talabalar har bir ijro eshitib, uning ovoz imkoniyatlarini, tonga tushishini, musiqiy metro ritmikasiga ahamiyat beradi. Qo‘shiq ijrosida musiqiy musiqiy harakatlarni ham uyg‘unlashtirish mumkin.

Bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchisi qo‘shiq so‘zlari va ohangiga mos harakatlarni ko‘rsatib, tinglash, kuylash va musiqiy harakatlarni birgalikda uyg‘unlashtirib, kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirib boradi. Eng muhimi, ularni musiqa san’ati dunyosiga olib kirish, o‘zbek xalq musiqa ijodini janrlariga juda boyligi, mazmunli, ma’noli ekanligi, musiqadan zavq olish bilan birga yosh avlodni aynan xalq qo‘shiqlari vositasida axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalab borish talab etiladi. Qo‘shimcha tarzda agar ushbu jarayonni teatrlashtirilgan holda tashkil etsa, qo‘shiqning she’riy va kuy-ohang mazmuni ular ongi va shuuriga tez singadi. Bu ko‘zlangan maqsadga erishishda yana bir improvizatsiyali metod bo‘lib xizmat qiladi. Agar asarda notanish so‘zlar uchraydigan bo‘lsa, talabalarning idrok jarayonini qiyinlashtirib qo‘ymaslik va diqqatini chalg‘itmaslik uchun uni tinglashdan oldin, notanish so‘zlarga izoh beriladi.

Xulosa. Qo‘shiqni ijro etib ko‘rsatgandan keyin ancha batafsil suhbat qilinadi, ammo bu suhbat juda cho‘zilib ketmasligi shart. Bo‘lajak musiqa fani o‘qituvchisi ijro etayotgan qo‘shiqni ta’sirli, ruhlantirib kuylash lozim. Shunda ularning tasavvurlarida qo‘shiq to‘g‘risida fikr va g‘oyalar paydo bo‘ladi. Bu istak darsning juda muhim paytidir. Shu jarayonda talabalar qo‘shiq haqida nima so‘z borishi, uning musiqasi qanday xususiyatga egaligi, u og‘ir – vazmin aytiladimi yoki tez aytiladimi, u marsh qo‘shig‘iga o‘xshaydimi yoki raqs qo‘shig‘iga, she’r matn mazmuni bilan kuy-ohang harakterida qanday jihatlar borligi, talabalar jo‘rnavozlikdan qanday zavq olishdi va h.k. Bundan tashqari, shu suhbatda yangi bilim va tushunchalarni o‘zlarida rivojlantiradi. Qo‘shiqdagi badiiy obrazni – kuchaytirishga yordam qiluvchi musiqali ifoda vositalarini tushunarli shaklda bilishi kerak. Ayrim hollarda, qo‘shiqning kuyini esiga solish uchun suhbatdan so‘ng ikkinchi marta ijro etish ma’qul. Qo‘shiq ijro etilib, suhbat o‘tkazilgandan keyin, talabalar qo‘shiqni bevosita o‘rganishga kirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O’zbekiston.2017. – B.40.

2. O’zbekiston Resupblikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni // Xalq so’zi. – T.:, 2020. – 24 sentyabrь. – B.1-2.

3. Vsemirnыy forum po obrazovaniyu. Dakar, Senegal 26-28 aprelya 2000 g. Zaklyuchitelьnыy doklad 2000. – Frantsiya: YuNESKO, 7. PlacecleFontenoy, 2000. – 84 s.

4. Gosudarstvennыe standartы obrazovaniya v Respublike Uzbekistan // Xalq ta’limi. – Toshkent, 1999. – № 5. – B. 3-4.

5. O'zbekiston Respublikasi pedagogik ta'lim kontseptsiyasi. – Toshkent: O'zR XTV, O'zPFITI, 1995. – 20 b.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagiMadaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli Qarori. Lex.uz/uz/docs/5849580.